# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 466 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ....18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari ....26
**To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li**

Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review....32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari....38
**Primova Shaxlo Jumayevna**

Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash....43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**

Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish ....52
**Qodirova Zilola Maxmud qizi**

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi....57
**Erkayev Nodir Xudayberdiyevich**

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari....71
**Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi**

Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution....76
**Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**

Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar....89
**Tilabova Kumush Farhod qizi**

Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ....95
**Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich**

"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish" ....101
**Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.**

Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan ....105
**Toyirova Hamida Umedovna**

Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli ....114
**Shakhlo Davirova**

2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi ....120
**Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek**

O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari ....125
**Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi**

Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri ....133
**Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li**

Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security....138
**Mamayusuf Abdusamatov**

Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari....143
**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**

Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров....150
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish ....157
**Safarov Alisher Ibrohim o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi ... 163
**Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi**

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari ... 167
**Mirdjalilova Dildora Shuxratovna**

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innavatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari ... 173
**Ulmasova Oygul Baxtiyorovna**

Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом ... 178
**Бердиева Дилфуза Ахатовна**

Improving long-term assets accounting and auditing ... 184
**Gulboy Yusupov**

Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli ... 189
**Bozorov Alisher Ro'zimurodovich**

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar ... 193
**Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur**

Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ... 200
**Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li**

Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish ... 206
**To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li**

Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri ... 214
**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса ... 219
**Садикова Раъно Абдуллаевна**

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati ... 225
**Salixova G.J**

Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi ... 230
**Samandarov Og'abek Alisher o'g'li**

Measuring methodologies of influence of the esg factors ... 235
**Tolipova Feruza Alisherovna**

Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития ... 240
**Омонов Отажон Журакулович**

Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish ... 249
**Quziev Ravshan Ramazanovich**

Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана ... 253
**Каршиева Мохинур Олим кизи**

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida) ... 257
**Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich**

Умные города как фактор экономического развития ... 261
**Нозима Кахрамоновна Хакбердиева**

Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан ... 266
**Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна**

Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish ... 270
**Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich**

Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash ... 275
**Fozil Xolmurotov**

Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlari ... 282
**Quliyev Begimqul Melikovich**

O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi......289
**Eshqobulova Charos O'roq qizi**

Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency......292
**Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna**

Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish......298
**Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich**

To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari......303
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi**

Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan)......307
**Azimov Shakhzod**

Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari......314
**Xidirov Shohrux Bobir o'g'li**

Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari......319
**Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich**

Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях......323
**Джураева Гузаль Шавкатовна**

Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari......328
**Shoraximova Zilola Nasirdjonovna**

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari......332
**Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li**

Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili......336
**Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi**

Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish......342
**Xaydarova E'zoza Shukurullayevna**

Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash......352
**Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna**

O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri......358
**Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich**

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integrasiyasi istiqbollari......362
**Ochilov Abdujabbor Akramovich**

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari......369
**Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna**

Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni......375
**Pulatov Shaxron Axmedovich**

Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari......379
**Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich**

Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida)......390
**Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li**

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari......397
**Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna**

Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti......403
**Yulduz Usmanova**

Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati......411
**Hamroyeva Umida**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan ........ 415
**Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi**

Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv ........ 423
**Urinov Bobur Nasilloyevich**

JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi ........ 423
**Baynazarov Elmurod Erkinovich**

Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari ........ 435
**Olimov Abror Axadjon o'g'li**

The impact of digital financial technologies on the financial system ........ 439
**Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunusovich**

Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi ........ 443
**To'rayev Shohrux Halimovich**

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari ........ 448
**Fayazov Muxiddin Sobirovich**

Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar ........ 453
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi ........ 459
**Burxanova Sabo Tulanovna**

# AYOLLAR TADBIRKORLIGINING TARIXI: O‘ZBEKISTON VA DUNYO BO‘YICHA RIVOJLANISHI



**Burxanova Sabo Tulanovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0006-6372-7153

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligining shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlanadi. Unda qadimgi davrlardan to zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ayollar tadbirkorligigacha bo‘lgan jarayonlar O‘zbekiston va jahon tajribasi misolida tahlil etiladi. Xususan, O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ayollar bandligini ta’minlashga qaratilgan strategiyalar, dasturlar va platformalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda xalqaro tashkilotlarning roli va xalqaro tajribalarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, O‘zbekiston, tarixiy rivojlanish, davlat siyosati, gender tenglik, raqamli iqtisodiyot, oilaviy tadbirkorlik, “Coozin” platformasi, xalqaro hamkorlik, xotin-qizlar huquqlari, ayollar bandligi, biznes ayollar, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This article explores the history of women's entrepreneurship in Uzbekistan and around the world. It examines the socio-economic aspects of women's involvement in business, as well as reforms and initiatives implemented in Uzbekistan to support female entrepreneurs. The study highlights the role of women in business throughout different historical periods – from ancient times to the present – focusing on achievements, existing challenges, and innovative modern approaches, including digital platforms. Particular attention is paid to Uzbekistan's state policies aimed at increasing women's participation in the economy and promoting gender equality.

Key words: women’s entrepreneurship, Uzbekistan, government support, gender equality, digital economy, female business, women’s social activity, international cooperation.

Аннотация: Настоящая статья посвящена изучению истории женского предпринимательства в Узбекистане и в мире. В ней рассматриваются социально-экономические аспекты развития предпринимательской деятельности среди женщин, реформы и инициативы, проводимые в Узбекистане, направленные на поддержку женщин-предпринимателей. Анализируется участие женщин в бизнесе в различные исторические периоды – от древности до современности, освещаются достижения, существующие проблемы и современные инновационные подходы, в том числе цифровые платформы. Особое внимание уделяется государственной политике Узбекистана по усилению роли женщин в экономике и обеспечению гендерного равенства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, Узбекистан, государственная поддержка, гендерное равенство, цифровая экономика, женский бизнес, социальная активность женщин, международное сотрудничество.

## KIRISH

Bugungi kunda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash va eng muhimi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo‘nalishlaridandir. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Binobarin, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan izchil sa’y-harakatlar opa-singillarimizning ijtimoiy faolligini oshirishga, turmush farovonligini yuksaltirishga imkon yaratmoqda. Shu sababli ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yil boshidan 3,5 mlrd dollarlik 3 mingta loyiha ishga tushirilib, 76 mingta yuqori daromadli doimiy ish o‘rni yaratildi. Tadbirkorlik uchun 82 trln so‘mlik kredit va 15,5 trln so‘mlik subsidiya berilib, 600 ming aholi biznesga jalb qilindi. Davlatimizda ayollarning jamiyatdagi huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, ularning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2024-yildagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son[1] qaroriga ko‘ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etildi. [1]

O‘zbekistonda “Biznes ayollar” davlat dasturi tasdiqlangan. Jumladan, mamlakatimizda tirishqoq, samimiy xalqimiz, birinchi navbatda ayollarimiz uchun hur, obod va osoyishta hayot bunyod etish – hukumatimiz va xalqimizning eng asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bo‘yicha ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy faolligini rivojlantirish, onalik hamda bolalikni muhofaza qilish, gender tenglikni vujudga keltirish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar bajarilmoqda.

Bugungi kunda ayollarning hukumat boshqaruvidagi hissasi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani diqqatga sazovordir. Shuningdek, bir qancha dono xotin-qizlar turmush tarzimizning barcha jabhalarida mehnatkashlik bilan faoliyat yuritayotgani barchamizni quvontiradi.

So‘nggi 5 yil davomida yurtimizda tadbirkor ayollar soni 2 baravarga ko‘payib, o‘z tadbirkorligini boshlagan ayollar miqdori 2025 ming nafardan oshdi. 2023-yilda 279 ming nafardan ortiq biznes loyihalariga 13 trln so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi, deyarli 57 ming nafar ayolga qariyb 300 mlrd so‘m miqdorida imtiyoz berildi. Salkam 200 ming xotin-qiz hunar va ishbilarmonlik bo‘yicha ta’lim oldi. Eng quvonarlisi – 400 mingdan ziyod ayollarimiz kasb-hunarga ega bo‘lishdi.

Ayollarga berilayotgan 6 trln so‘mlik ipoteka mablag‘lari hisobidan 25 mingdan ortiq kishi o‘z xonadonlariga ega bo‘ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar xotin-qizga turar-joy sharoitlarini yaxshilash va dastlabki to‘lovni qoplash uchun 200 mlrd so‘mlik imtiyozlar ajratilgan.

Hududlarda ayollar orzu va tashvishlarini aniqlash, ularga yechim topishga qaratilgan amaliy ishlar oxirgi bosqichlarga chiqmoqda. 2023-yilda “Ayollar daftari” doirasida ajratilgan 1 trln 234 mlrd so‘m mablag‘ evaziga deyarli 994 ming ayolning muammolari bartaraf etilgan. [2]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligiga oid bir qancha xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Rossiyalik iqtisodchi olima Alimpiyeva tadbirkorlik sohasida ayollarning strategik xususiyatlari hamda tadbirkorlikning oilaviy faoliyatga ta’sirini o‘rgangan. Semenov[2] va Raymanova[3] tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan. Boshqa bir olima – Semyonovaning fikricha[4], katta va o‘rta yoshdagi oliy ma’lumotli ayollar tadbirkorlik

1 https://lex.uz/docs/-6831827

2 Semenov R.I. (2018) Development of women’s entrepreneurship in Russia // Quality of science – quality of life. № 11. P. 72–75. [Semenov R.I. Razvitie zhenskogo predprinimatel’stva v Rossii // Kachestvo nauki – kachestvo zhizni. 2018. № 11. S. 72–75] – (In Rus.)

3 Raimanova Z.I. (2018) Actual problems of development of women entrepreneurship in Russia // Reports of the Bashkir University. 2018. № 3 (6). P. 661–664. [Raymanova Z. I. Aktual’nye problemy razvitiya zhenskogo predprinimatel’stva v Rossii // Doklady Bashkirskogo universiteta. № 3(6). S. 661–664] – (In Rus.)

4 Семенова Ю.А. (2013) О социальном механизме оптимизации женского предпринимательства //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Социология. Политалогия. №13(1). С. 33-35.

faoliyatida yuqori natijalarga erishishga moyil bo'ladilar. Uning ta'kidlashicha, o'z biznesini tashkil etish va rivojlantirishda ular zarur moliyaviy resurslar hamda aloqalardan foydalangan holda yuqori malakaviy qobiliyatlari, boshqaruvchilik tajribasi, mustaqil ijodiy yondashuv va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyon qiladilar.

Iqtisodchi Husanovaning fikricha[5], ayollar tadbirkorligi faoliyatining mohiyatini to'liq anglab yetish, davlat iqtisodiyotida ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlab, ularni yuqori darajada bartaraf etishga qaratilgan ishbilarmonlik harakatlarini shakllantirish, shuningdek, bu jarayonni boshqarishning nazariy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Annayeva esa O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi muayyan omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi[6]. U, xususan, mavjud muammolar ayollarning oiladagi va jamiyatdagi mavqeini oshirish orqali hal etilishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Iqtisodchi Aripov o'z ilmiy tadqiqotlarida ayollarning tadbirkorlikdagi faolligi masalasini nazariy jihatdan tahlil qilgan[7]. Abdurahmanov va Zokirov esa xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rgangan[8]. Ular o'z tadqiqotlarida ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida amalda qo'llash bo'yicha amaliy takliflar berganlar.

Shunga qaramay, respublikamizda ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish borasida mavjud muammolar ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligi tarixini, dunyo va yurtimizdagi o'rnini hamda ahamiyatini chuqur tahlil qilish maqsadida zamonaviy iqtisodiy-tahliliy, statistik va solishtirma usullardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

- Tarixiy-tahliliy yondashuv – ayollar tadbirkorligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish orqali ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rnini aniqlashga xizmat qildi.
- Statistik tahlil usuli – rasmiy statistik ma'lumotlar (Davlat statistika qo'mitasi va Prezident qarorlari asosida) orqali xususiy sektor faoliyati, bandlikdagi o'rni, YaIMdagi ulushi va eksport salohiyati kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.
- Solishtirma (komparativ) tahlil – tadbirkorlikning turli sohalardagi (sanoat, savdo, qurilish, xizmat ko'rsatish) rivojlanish sur'atlari va ulushlari o'rtasida taqqoslashlar olib borildi.
- Mantiqiy tahlil va umumlashtirish usuli – ilmiy adabiyotlar, ekspertlar fikrlari va qonunchilik bazasi asosida mavjud holat tahlil qilinib, xulosalar ishlab chiqildi.
- Empirik yondashuv – amaliyotdagi mavjud muammolar va yutuqlarni aks ettirish maqsadida statistik faktlar, real holatlar va rasmiy hisobotlar asosida tahlil o'tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ayollar tadbirkorligi tarixi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bog'liq bo'lgan murakkab va dinamik jarayondir. Bu jarayon zamonlar o'tishi bilan o'zgargan va jamiyatda ayollarning o'rni, iqtisodiy imkoniyatlari hamda qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ushbu tadqiqotda ayollar tadbirkorligi tarixi O'zbekiston va jahon tajribasi misolida ko'rib chiqiladi, uning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi hamda erishilgan yutuqlar va duch kelinayotgan muammolar muhokama etiladi.

Qadimiy davrlarda ayollar tadbirkorligi, asosan, oilaviy biznesga bog'liq bo'lgan. Ayollar uyda tikuvchilik, to'quvchilik, oziq-ovqat tayyorlash va savdo bilan shug'ullangan holda oila daromadining asosiy manbalaridan biriga aylanganlar.

---

5 Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna Ayollar tadbirkorligi mexanizmining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati/Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2021. 4-son

6 Annayeva N.R. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (Uzbekiston misolida» Falsafa fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarkand. 2018.

7 Aripov Oybek Abdullayevich Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun. 2017.

8 Абдураманов Ш. Зокиров фаолиятини куллаб-кувватлаш буйича хориж тажрибаси. 2022.

- Qadimgi Misrda ayol fir'avnlar va malikalar savdo, qishloq xo'jaligi hamda sanoatni boshqarishda faol ishtirok etganlar.

- Qadimgi Yunonistonda ayollar uy xo'jaliklarini yuritish, tikuvchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ba'zilari esa o'z bizneslarini tashkil etishga ham muvaffaq bo'lganlar.

- Qadimgi Rimda ayollar mulkka egalik qilish, shartnomalar tuzish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lganlar.

O'rta asrlarda esa ayollar tadbirkorligi an'anaviy tarzda oilaviy biznes doirasida saqlanib qolgan. G'arb davlatlarida ayol monarxlar va malikalar siyosiy hamda iqtisodiy kuchga ega bo'lgan bo'lsalar-da, oddiy ayollar uchun biznesda ishtirok etish imkoniyati ancha cheklangan edi. O'rta Osiyoda esa ayol hunarmandlar va savdogarlar o'z bizneslarini yuritganlar. Yevropada esa ayol hunarmandlar, savdogarlar va oshxona-restoran egalarining iqtisodiy faoliyati kuzatilgan.

XVIII–XIX asrlarga kelib, sanoat inqilobi natijasida yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Sanoatning rivojlanishi ayollarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etdi. Bu esa ularga o'z bizneslarini tashkil etish, moliyaviy mustaqillikka erishish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkonini berdi. Angliyada ayol to'quvchilar va tikuvchilar kichik korxonalar ochganlar. AQShda ayollar ishlab chiqaruvchilar va savdogarlar sifatida mustaqil biznes yuritishga kirishganlar.

XX asr boshlarida ayollarga ovoz berish huquqining berilishi va jamiyatda ayollarning o'rnining o'zgarishi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga kuchli turtki bo'ldi. Ayollar biznesga ochiqchasiga kirib kelishni boshladilar va teng imkoniyatlarga ega bo'lishni talab qildilar. Dunyo bo'ylab ayol tadbirkorlar o'z bizneslarini turli sohalarda tashkil etganlar[9].

O'tgan asrda tadbirkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar dastlab ayollar va erkaklar biznes yuritishda bir xil xususiyatlarga ega, degan fikrni ilgari surgan. Biroq bu qarash bugungi kunda noto'g'ri ekani ilmiy jihatdan isbotlangan. 1970-yillardan boshlab tadbirkorlikning gender jihatlariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 1976-yilda Shvarts tomonidan ayollar tadbirkorligi haqidagi ilk ilmiy maqola chop etildi. Keyinchalik ushbu mavzu butun dunyo miqyosida keng o'rganila boshlandi, ko'plab tahliliy ishlar va siyosiy chiqishlar amalga oshirildi[10].

Dastlabki ilmiy izlanishlar "tadbirkor ayol" tushunchasi yoki uni erkak tadbirkorlar bilan solishtirishga yo'naltirilgan bo'lsa, keyingi bosqichda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va uni muvaffaqiyatli yuritishiga ta'sir etuvchi omillar keng ko'lamda tadqiq qilina boshlandi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda olimlar raqamli iqtisodiyotning ayollar biznesini boshlashiga ta'sirini ham o'rganishga kirishdilar[11].

G'arb adabiyotlarida "tadbirkor ayol" tushunchasi ilk bora tijorat korxonasini tashkil etuvchi, yurituvchi va boshqaruvchi ayol sifatida tavsiflangan.

Chet mamlakatlarda nashr etilayotgan asarlarda hozirgi vaqtda jahon xotin-qizlarining biznesdagi o'rni va duch kelayotgan muammolari keng yoritilmoqda. Xususan, xotin-qizlar ishbilarmonligiga oid amerikalik mutaxassis Odra Shallal XXI asrda ayollar biznesi butun dunyo, shu jumladan Yaqin Sharq va Afrika iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy bo'g'inga aylanganini ta'kidlaydi. U Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham bu haqiqatni tan olganini, biroq ziyoli, o'z tadbirkorlik g'oyalariga ega bo'lgan ishbilarmon xotin-qizlar ko'p bo'lishiga qaramay, ularning faoliyatini tashkil etish jarayoni ko'p hollarda murakkab kechayotganini qayd etadi. Shallalning fikricha, ishbilarmon ayollarning 65 foizga yaqini maishiy xizmatlar, ya'ni go'zallik va sog'liqni saqlash sanoatida faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 7-iyundagi ""Har bir oila-tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-son[12] qarorida aynan shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish nazarda tutilgan. Ilgari ilmiy leksikonda "oilaviy biznes", "oilaviy tadbirkorlik", "oilaviy kasanachilik" kabi atamalar mavjud bo'lib, ular mohiyatan oila doirasidagi tadbirkorlik faoliyatini anglatgan. Mazkur Qarorda esa "har bir oila – tadbirkor" yoki "tadbirkor oila" kabi yangi tushunchalar iste'molga kiritildi.

9 Schwartz, E. (1976). Entrepreneurship: A new female frontier. Journal of Contemporary Business, 5, 47–76.
10 Brush, C. G., de Bruin, A., & Welter, F. (2009). A gender-aware framework for women's entrepreneurship. International Journal of Gender and Entrepreneurship, 1, 8–24.
11 M.Isaqova. O'zbekiston turizmining rivojlanishida xotin-qizlar hunarmandchiligining o'rni (1991-2021 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. B.9.
12 https://lex.uz/acts/-3772869

Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi ayollarning Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tadbirkor ayollar bilan hamkorligini kengaytirish, xorijiy tajribani mamlakatimizga tatbiq etish va undan samarali foydalanish borasida ham bir qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu yoʻnalishda “Tadbirkor ayol” Oʻzbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligida “Ishsiz ayollarni oʻqitish, ularga hunar oʻrgatish”, “Innovatsion metodlar yordamida hayot darajasini koʻtarish” kabi loyihalarni amalga oshirayotganini alohida e’tirof etish mumkin.

Yangi korxonalarning tashkil etilishi, kichik biznes subyektlarining rivojlanib oʻrta yoki yirik korxonalarga aylanishi, ayrim korxonalar faoliyatining toʻxtashi bozor iqtisodiyotiga xos xususiyatlardandir. Ana shu jarayon iqtisodiyotda bandlik bilan bogʻliq muammolarni yuzaga keltirib, ularni tizimli hal qilish zaruratini tugʻdiradi[13].

2024-yil – “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi tashabbusi bilan ilk bora “Jamiyatning rivojlanishida xotin-qizlar tadbirkorligining oʻrni” shiori ostida Respublika tadbirkor ayollar forumi oʻtkazildi. Ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash maqsadida “Coozin” platformasi ishga tushirildi.

2024-yilning 12-yanvar kuni Oʻzbekistonda xotin-qizlar biznesini himoya qilishga qaratilgan innovatsion “Coozin” platformasi faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Shu munosabat bilan YEXHT va “The Coca-Cola Foundation” xalqaro xayriya fondi koʻmagida IT Park Uzbekistan hamda Ishbilarmon ayollar xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda “Hilton” mehmonxonasida tadbir tashkil etildi. Platformaning ishga tushirilishi Oʻzbekistonda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga koʻmaklashadi.

“Coozin” loyihasi – oʻz-oʻzini band qilgan ayollarga oʻz mahsulotlarini, jumladan, uy sharoitida tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sotish imkoniyatini beruvchi Oʻzbekistondagi ilk loyihadir. U “The Coca-Cola Foundation” xalqaro xayriya fondi koʻmagida YEXHT, IT Park va Oʻzbekiston Ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. “Coozin” ilgʻor raqamli texnologiyalar asosida ayollar tadbirkorligi va oʻz-oʻzini band qilishni rivojlantirishga qaratilgan[14].

Bugungi kunda Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi, “Tadbirkor ayol” Oʻzbekiston Ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi va uning hududiy boʻlinmalari, Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasining “Ayollar qanoti” bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar va Adliya vazirliklaridan akkreditatsiyadan oʻtgan bir qator xalqaro tashkilotlar, xorijiy, birinchi navbatda, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi ayollar markazlari, shuningdek, oila va ayollar masalalari, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro xotin-qizlar harakatlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan xalqaro faoliyatni olib bormoqda.

- Jumladan, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari va agentliklari:
- Bolalar tashkiloti (UNICEF);
- Ayollar tuzilmasi (UN Women);
- Ayollar holati boʻyicha komissiya (UNCSW);
- Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE);
- Osiyo taraqqiyot banki (ADB);
- Jahon banki (WB);
- Project HORE va boshqalarni koʻrsatish mumkin.

Oʻzbekiston: mamlakat mustaqillikka erishgach, ayollarga oʻz bizneslarini boshlash va rivojlantirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi. Yildan yilga oʻz tadbirkorligini yoʻlga qoʻygan ayollar sonining ortib borayotgani bu fikrni tasdiqlaydi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga koʻra, Toshkent viloyati boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 4995 tani tashkil etgan boʻlib, bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 237 taga koʻpdir. 2022-yilda esa ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, umumiy faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hajmidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etgan (1-rasm).

---

13 I.Toshmatova. Tadbirkor ayollarni qo’llayotgan tashkilot endi xalqaro maqomda // 2023. https://yuz.uz/uz/news/tadbirkor-ayollarni-qol-layotgan-tashkilot-endi-xalqaro-maqomida

14 “Coozin” loyihasi menedjyeri Yekaterina Xe. Ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash uchun “Coozin” platformasi ishga tushirildi // https://m.kun.uz/news/2024/01/12/ayollar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-uchun-coozin-platformasi-ishga-tushirildi?q=%2Fuz%2F-news%2F2024%2F01%2F12%2Fayollar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-uchun-coozin-platformasi-ishga-tushirildi




1-rasm. Ayollar tomonidan rahbarlik qilayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni hududlar, birliklar bo‘yicha.

Mintaqalar bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar ayollar rahbarligida Toshkent shahrida (9 764 ta), Toshkent viloyatida (4 760 ta), Samarqand (2 974 ta) va Navoiy (2 544 ta) viloyatlarida qayd etilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2 338 ta), Buxoro (2 073 ta) va Surxondaryo (2 002 ta) viloyatlarida ham ayollar boshchiligidagi biznes subyektlari nisbatan yuqori. Eng past ko‘rsatkich esa Andijon viloyatida kuzatilgan – atigi 1 121 birlikni tashkil etadi.

1-jadval. Kichik korxonalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari va ayollar boshchiligidagi mikrofirmalar.

| Nomi | o‘lchov birligi | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| tashkilotdagi ish o‘rinlari bo‘lgan xodimlar soni o‘rtacha ish haqini hisoblash uchun | Odam | 95225 | 106844 |
| Ishlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning hisoblangan daromadlari ish haqi shaklida kitoblar | Mln.so‘m | 1212,2 | 1702,7 |
| Mehnat daftarchalari bo‘lgan xodimlar soni hisobot yilining oxiri | odam | 111486 | 117669 |
| shu jumladan oliy ta’lim | odam | 27844 | 31980 |
| Yangi kiritilgan ish o‘rinlari soni hisobot yili uchun | birliklar | 32320 | 41409 |
| Pensiyaga chiqqanlar soni hisobot yili uchun | birliklar | 21962 | 22331 |
| Ishga ega bo‘lgan xodimlar soni kitoblar, yiliga o‘rtacha | odam | 113061 | 120104 |
| Ishlagan xodimlar soni o‘rtacha fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha ishlash yiliga | odam | 1620 | 2473 |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son[15] qarori e’lon qilindi. Qarorga muvofiq, dasturni 2023–2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag‘lari hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltirilishi belgilandi.

Mamlakatimiz rahbari huzuridagi Statistika agentligi manbalariga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ish yuritayotgan mayda korxona va kichik firmalar soni 417,1 ming tani tashkil etdi.

15 https://lex.uz/uz/docs/-6609110

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston va xalqaro tajriba asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishda kreditlash tizimi samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, ayollar rahbarligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari O‘zbekistonda umumiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 30 % ni tashkil etgan. Xususan, “Ayollar daftari” loyihasi doirasida ajratilgan imtiyozli kreditlar natijasida 45 000 dan ortiq ayol o‘z biznes faoliyatini yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘lgan.

Xotin-qizlarga ajratilgan bank mablag‘lari orqali quyidagi natijalar qayd etilgan: Moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi muammosi: Markaziy bankning 2022-yilgi hisobotiga ko‘ra, xotin-qizlarning 43 % i iqtisodiy bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi sababli kredit olish imkoniyatidan foydalana olmaydi. Bu holat moliyaviy savodxonlikni oshirishni dolzarb vazifa sifatida ilgari suradi. Hamkorlikni kengaytirish orqali ijobiy natijalar: Davlat va moliyaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish natijasida:

2023-yilda xotin-qizlar ishbilarmonligiga ajratilgan kreditlar hajmi 15 % ga oshdi;

“Raqamli moliyalashtirish” dasturi orqali 12 000 dan ortiq ayol raqamli kreditlardan foydalandi;

Hukumat tomonidan evazsiz mikrokredit tizimlari joriy etildi va ularning yillik hajmi 250 milliard so‘mga yetkazildi.

Shu asosda, ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishga oid dasturlarni kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli moliya vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va kredit infratuzilmasini ayollar uchun soddalashtirish zarurati mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi // - T.: 07.03.2024.
2. Semenov R.I. (2018) Development of women’s entrepreneurship in Russia // Quality of science – quality of life. № 11. P. 72–75. [Semenov R.I. Razvitie zhenskogo predprinimatel’stva v Rossii // Kachestvo nauki – kachestvo zhizni. 2018. № 11. S. 72–75] – (In Rus.)
3. Семенова Ю.А. (2013). О социальном механизме оптимизации женского предпринимательства //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Социология. Политалогия. №13(1). С. 33-35.
4. Schwartz, E. (1976). Entrepreneurship: A new female frontier. Journal of Contemporary Business, 5, 47–76.
5. Brush, C. G., de Bruin, A., & Welter, F. (2009). A gender-aware framework for women’s entrepreneurship. International Journal of Gender and Entrepreneurship, 1, 8–24.
6. M.Isaqova. O‘zbekiston turizmining rivojlanishida xotin-qizlar hunarmandchiligining o‘rni (1991-2021 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. B.9.
7. I.Toshmatova. Tadbirkor ayollarni qo‘llayotgan tashkilot endi xalqaro maqomda // 2023.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz